

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA MINTAQAVIY NOMUTANOSIBLIKARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Urinov Bahrom Jamoliddinovich

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti dekani PhD, dotsent.

Telefon: +998 91 3659990

Elektron pochta: urinov.bahrom@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining 14 ta ma'muriy hududi — Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri — bo'yicha investitsion jozibadorlikni integral baholashning mualliflik metodikasi ishlab chiqilgan va 2020–2025-yillar rasmiy statistik ma'lumotlari asosida aprobat siya qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi investitsiya oqimlarining hududlar o'rtasida keskin nomutanosib taqsimlanishi bilan belgilanadi: 2025-yil yanvar–sentabr oylarida o'zlashtirilgan 443,6 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalarning 38,0 foizi aholining atigi 19,5 foizi istiqomat qiladigan uchta hududga to'g'ri kelgan. Metodologik asos sifatida investitsion salohiyat va notijorat investitsiya xavfining qarama-qarshi yo'nalishdagi ta'sirini umumlashtiruvchi integral ko'rsatkich konsepsiyasi tanlangan. Model to'qqizta xususiy omilni — beshtasi salohiyat, to'rttasi xavf bloklarini — respublika o'rtacha darajasiga nisbatan standartlashtirish, og'irlik koeffitsientlari bo'yicha agregatlash va darajali funksiya orqali integral indeksga keltirishni nazarda tutadi. Umumlashgan og'irlik koeffitsientlari investitsiya faolligi bilan korrelyatsiya zichligi asosida hisoblangan. Natijada hududlarning integral reytingi tuzilgan, «salohiyat — xavf» matritsasi bo'yicha to'rt kvadrantli tipologiya va salohiyatdan foydalanish samaradorligi koeffitsienti bo'yicha guruhlash amalga oshirilgan. Yetakchi Navoiy viloyati (1,548) bilan quyi pog'onadagi Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,771) o'rtasidagi tafovut 2,01 barobarni tashkil etadi. Model investitsiya faolligi bilan kuchli korrelyatsiyani namoyon etdi. Jon boshiga investitsiyalar bo'yicha ekstremal tafovut qisqargan bo'lsa-da, aholi bilan vaznlangan Jini koeffitsienti o'sib, divergensiya kuchaygan. Hududlarning 35,7 foizi «past salohiyat — yuqori xavf» kvadrantida bo'lib, unda aholining 42,3 foizi to'plangan. Xomashyoga boy viloyatlarning reytingda quyi o'rinni egallashi «resurs la'nati» mexanizmi bilan izohlangan. Tavsiyalar erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari va klaster siyosatini hududlarning qiyosiy ustunliklariga moslashtirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari hududiy investitsiya siyosatini shakllantirishda, davlat investitsiya dasturlari doirasida mablag'larni taqsimlashda hamda hududlar reytingini monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yishda amaliy qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: investitsion jozibadorlik; integral baholash; investitsion salohiyat; notijorat investitsiya xavfi; mintaqaviy nomutanosiblik; hududlar tipologiyasi; investitsiya faolligi; salohiyatdan foydalanish samaradorligi; erkin iqtisodiy zona; klaster siyosati.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining so'nggi o'n yilliklardagi rivojlanishi kapitalning erkin harakati va investitsiya resurslari uchun global raqobatning misli ko'rilmagan darajada kuchayishi bilan tavsiflanmoqda. UNCTAD baholashlariga ko'ra, geosiyosiy parchalanish va ta'minot zanjirlarining qayta qurilishi sharoitida investorlar endi

mamlakat darajasidagi umumiy makroiqtisodiy barqarorlik bilan cheklanmay, aniq hudud darajasidagi infratuzilma, inson kapitali va institutsional muhit sifatini baholamoqda [23]. Shu sababli investitsion jozibadorlik tahlilining asosiy birligi milliy iqtisodiyotdan mintaqaviy iqtisodiyotga siljidi.

Ushbu tendensiya O'zbekiston uchun ham bevosita amaliy ahamiyatga ega. 2024-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar 493,7 trln so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 127,6 foizga o'sdi, xorijiy investitsiyalar esa 152,1 foiz o'sish sur'atini namoyish etdi [12]. «O'zbekiston–2030» strategiyasida YaIMni 2030-yilga qadar 160 mlrd AQSh dollariga yetkazish maqsadi belgilangan bo'lib, bu yillik 30 mlrd dollardan ortiq investitsiya jalb etishni talab qiladi [15].

Biroq investitsiya oqimlarining mutlaq hajmi ortishi ularning hududlar o'rtasida muvozanatli taqsimlanishini anglatmaydi. 2025-yil yanvar–sentabr oylarida o'zlashtirilgan 443,6 trln so'mning 38,0 foizi respublika aholisining atigi 19,5 foizi istiqomat qiladigan uchta hududga (Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari) to'g'ri keldi. Markaz bilan periferik hududlar o'rtasida jon boshiga investitsiyalar bo'yicha tafovut 2,56 barobarni tashkil etadi. Bu holat «markaz — periferiya» modelining klassik ko'rinishi bo'lib, uzoq muddatda hududiy divergensiya va ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin [20].

Muammoning ilmiy mohiyati shundan iboratki, bugungi kunda O'zbekiston hududlarining investitsion jozibadorligini yagona, takrorlanuvchan va miqdoriy jihatdan asoslangan metodika bo'yicha baholash tizimi shakllanmagan. Mavjud rasmiy monitoring investitsiya faolligining natijaviy ko'rsatkichlarini qayd etadi, ammo bu faollikni shakllantiruvchi salohiyat va xavf omillarini ajratib tahlil qilmaydi.

Tadqiqotning maqsadi — investitsion salohiyat va notijorat investitsiya xavfining qarama-qarshi yo'nalishdagi ta'sirini umumlashtiruvchi ko'p o'lchovli integral baholash modelini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, uning asosida 14 ta hududning investitsion jozibadorligini miqdoriy baholash, ularni tipologik guruhlariga ajratish va mintaqaviy nomutanosiblikni qisqartirishning maqsadli mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Vazifalar: nazariy-metodologik yondashuvlarni tanqidiy tahlil qilish; salohiyat va xavf bloklarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish; standartlashtirish va og'irlik koeffitsientlarini hisoblash mexanizmini ishlab chiqish; integral indeksni hisoblash va tipologiya yaratish; salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash; amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti — O'zbekiston Respublikasining 14 ta ma'muriy-hududiy birligi iqtisodiyoti. Predmeti — hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantiruvchi salohiyat va xavf omillari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar hamda ularning investitsiya faolligiga ta'siri.

Ilmiy gipoteza: hududlardagi investitsiya faolligi tafovutlari faqat tabiiy-resurs salohiyati farqi bilan izohlanmaydi; ular sezilarli darajada notijorat investitsiya xavflari ta'sirida shakllanadi, shu sababli xomashyo salohiyati yuqori bo'lgan ayrim hududlar integral jozibadorlik bo'yicha o'rta yoki quyi pog'onalarni egallaydi.

Ilmiy yangilik: (a) mintaqaviy investitsion jozibadorlikni integral baholashning to'qqiz omilli mualliflik modeli O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan; (b) og'irlik

koeffitsientlari investitsiya faolligi bilan korrelyatsiya zichligi asosida hisoblash mexanizmi taklif etilgan; (c) aglomeratsiya va logistik izolyatsiya ko'rsatkichlari uchun logarifmik standartlashtirish joriy etilgan; (d) hududiy boshqaruv samaradorligini o'lchovchi E koeffitsienti bo'yicha tipologiya ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy investitsion jozibadorlik nazariyasining shakllanishi bir necha mustaqil yo'nalish tutashgan nuqtada yuz bergan. Birinchi yo'nalish — portfel nazariyasi: H. Markowitz asoslagan «daromadlilik — xavf» muvozanati konsepsiyasi investitsiya qarorini faqat kutilayotgan daromad emas, balki uning o'zgaruvchanligi ham belgilashini isbotladi [8]. Ushbu g'oyaning mintaqaviy iqtisodiyotga ko'chirilishi investitsion jozibadorlikni salohiyat va xavf nisbati sifatida talqin qilish imkonini berdi va bugungi kunda amal qilayotgan integral metodikalarning konseptual o'zagini tashkil etadi.

Ikkinchi yo'nalish — yangi iqtisodiy geografiya. P. Krugman o'sib boruvchi daromadlilik, transport xarajatlari va bozor hajmi o'rtasidagi o'zaro ta'sir kapitalning ma'lum markazlarda kumulyativ to'planishiga olib kelishini formallashtirdi [7]; bu model hududiy nomutanosiblikni bozorning tabiiy natijasi sifatida izohlaydi. M. Portnering klaster nazariyasi esa raqobat ustunligi bir-biriga bog'liq korxonalar, ta'minotchilar va institutlarning fazoviy konsentratsiyasida shakllanishini ko'rsatib, hududiy siyosatga aniq operatsion vosita berdi [19].

Uchinchi yo'nalish — postsovet makonida ishlab chiqilgan kompleks baholash metodikalari. I. Roizman, I. Grishina va A. Shaxnazarov Rossiya hududlari uchun investitsion jozibadorlikni salohiyatning notijorat xavfga nisbati sifatida o'lchash metodikasini taklif etdilar [21; 5]. Ushbu maktab doirasida bajarilgan va mazkur tadqiqot uchun bevosita metodologik asos bo'lib xizmat qilgan E. I. Bey dissertatsiyasida integral baholashning to'liq apparati bayon etilgan: ko'rsatkichlarni o'rtacha darajaga nisbatan standartlashtirish, ahamiyatlilik koeffitsientlari bilan agregatlash, diversifikatsiya koeffitsientlarini hisoblash hamda foydalanish samaradorligini investitsiya faolligining jozibadorlikka nisbati sifatida o'lchash [2]. Bey metodikasining muhim yutug'i — omillar tarkibini tanlash mezoni sifatida integral ko'rsatkichning investitsiya faolligi bilan korrelyatsiya zichligini belgilaganidir, bu modelning subyektivligini kamaytiradi.

To'rtinchi yo'nalish — hududiy konvergensiya va divergensiya nazariyasi. Neoklassik o'sish modellari kapitalning kam ta'minlangan hududlarga oqib borishi va darajalarning tenglashuvini bashorat qilgan bo'lsa-da, yangi iqtisodiy geografiya modellari aksincha — aglomeratsiya samarasining kuchayishi va kapitalning markazlarga qaytadan to'planishini ko'rsatdi [7]. Beshinchi yo'nalish — xalqaro reyting agentliklari (Euromoney, Jahon banki, OECD) metodikalari, ularning kuchli tomoni xalqaro taqqoslanuvchanlik, zaif tomoni esa mamlakat ichidagi hududiy tafovutlarni ko'rmasligidir; aynan shu cheklov mintaqaviy darajada mustaqil metodikalar zaruratini yuzaga keltirdi [11].

Zamonaviy xalqaro adabiyotda A. Rodríguez-Pose «ahamiyatga ega bo'lmagan joylarning qasosi» konsepsiyasida uzoq davom etgan hududiy qoloqlik institutsional

ishonchning yemirilishiga olib kelishini asosladi [20]. S. Iammarino, A. Rodríguez-Pose va M. Storper Yevropa hududlari misolida faqat kapital oqimini rag'batlantirishga qaratilgan siyosat tengsizlikni kamaytirmasligini, «joyga asoslangan» (place-based) yondashuv zarurligini ko'rsatdilar [6]. Xomashyoga boy hududlarning past rivojlanish traektoriyasi J. Sachs va A. Warnerning «resurs la'nati» gipotezasi doirasida tushuntiriladi [22]. Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligi bo'yicha S. Frick, A. Rodríguez-Pose va M. Wong o'tkazgan tadqiqot zonalarining dinamikasi soliq imtiyozlaridan ko'ra bozor hajmi va infratuzilma sifatiga ko'proq bog'liqligini empirik asosladi [4].

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari so'nggi yillarda faollashdi. Sh. I. Mustafakulov «O'zbekiston–2030» strategiyasi doirasida viloyatlar o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qilib, yetakchi va orqada qolayotgan hududlar guruhini ajratgan [9]. U. A. Otajanov hududlarning investitsion salohiyatini kompleks baholash yondashuvini taklif etgan [11]. N. I. Yormonqulova mintaqaviy tafovutlar va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan [25], O. Yu. Esanaliev esa kichik sanoat zonalarining hududiy investitsion faollikni oshirishdagi rolini asoslagan [3]. Institutsional muhit masalalari OECD va Jahon banki hisobotlarida yoritilgan, ularda investitsiyalarni himoya qilish va ma'muriy to'siqlar asosiy cheklov omili sifatida qayd etilgan [10; 24; 1].

Mavjud tadqiqotlarning tanqidiy tahlili shuni ko'rsatadi: postsovet maktabi metodikalari 80 dan ortiq hududga ega mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lib, 14 ta kuzatuv birligiga ega O'zbekiston sharoitida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi statistik jihatdan asossiz bo'ladi; xalqaro tadqiqotlar (Rodríguez-Pose, Frick) O'zbekiston statistikasida mavjud bo'lmagan ko'rsatkichlarga tayanadi; mahalliy mualliflarning ishlari esa asosan tavsifiy tahlil bilan cheklanadi — ularda salohiyat va xavf bloklari ajratilmaydi, og'irlik koeffitsientlari asoslanmaydi. Shunday qilib, ilmiy bo'shliq quyidagicha aniqlanadi: O'zbekistonning 14 ta hududi uchun rasmiy statistikaga tayanuvchi, salohiyat va xavf bloklarini ajratgan, og'irlik koeffitsientlari empirik asoslangan va natijalari takrorlanishi mumkin bo'lgan yagona integral baholash tizimi hozirgacha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda E. I. Bey tomonidan asoslangan mintaqaviy investitsion jozibadorlikni kompleks baholash metodologiyasi [2] O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi va statistik ta'minoti sharoitiga moslashtirildi: kuzatuv birliklari soni kamligi ($n = 14$) hisobga olinib, xususiy omillar soni to'qqiztagacha qisqartirildi; o'zgarish diapazoni juda keng bo'lgan ko'rsatkichlar uchun logarifmik standartlashtirish joriy etildi; og'irlik koeffitsientlari ekspert yo'li bilan emas, korrelyatsion tahlil natijalari asosida hisoblandi.

Qabul qilingan yondashuvga ko'ra, hududning investitsion jozibadorligi uning investitsion salohiyati va notijorat investitsiya xavfi o'rtasidagi nisbat bilan tavsiflanadi.

1. Ko'rsatkichlar tizimi. Barcha xususiy ko'rsatkichlar aholi soni va hudud

maydonidan mustaqil (nisbiy) bo'lishi shart. Investitsion salohiyat (X_{pot}) besh blok bo'yicha shakllantirildi: p_1 — ishlab chiqarish-iqtisodiy salohiyat (jon boshiga YaHM); p_2 — moliyaviy salohiyat (jon boshiga aholi mablag'lari hisobidan investitsiyalar); p_3 — infratuzilma-aglomeratsiya salohiyati (aholi zichligi); p_4 — iqtisodiy dinamika salohiyati (YaHMning real o'sish sur'ati); p_5 — tabiiy-resurs va agroiklim salohiyati (ekspert bahosi). Notijorat investitsiya xavfi (X_{risk}) to'rt blok bo'yicha shakllantirildi: r_1 — institutsional-loyihaviy xavf (investitsiyalar o'sish sur'atining 2020–2025-yillardagi variatsiya koeffitsienti); r_2 — ijtimoiy keskinlik xavfi (ekspert bahosi); r_3 — ekologik yuklama (ekspert bahosi); r_4 — logistik izolyatsiya (viloyat markazining poytaxtdan masofasi).

2. Standartlashtirish. Har bir ko'rsatkich respublika o'rtacha darajasiga nisbatan standartlashtirildi:

$$W_{si} = x_{si} / \bar{x}_s, \quad (1)$$

bu yerda x_{si} — s-ko'rsatkichning i-hududdagi qiymati, $\bar{x}_s$ — respublika o'rtachasi. Aholi zichligi va masofa ko'rsatkichlari uchun (diapazon 700 barobardan oshgani sababli) logarifmik standartlashtirish qo'llanildi: $W_{si} = \ln(x_{si}) / \langle \ln(x_s) \rangle$. (2)

3. Bloklar bo'yicha agregatlash. Standartlashtirilgan pozitsiyalar og'irlik koeffitsientlari bilan vaznlangan o'rtacha sifatida integral darajalarga keltirildi:

$$X_{pot,i} = \Sigma(k_s^{pot} \cdot W_{si}) / \Sigma k_s^{pot}; \quad X_{risk,i} = \Sigma(k_t^{risk} \cdot W_{ti}) / \Sigma k_t^{risk}. \quad (3, 4)$$

Salohiyat bloki og'irliklari: $k(p_1)=0,28$; $k(p_2)=0,22$; $k(p_5)=0,20$; $k(p_3)=0,18$; $k(p_4)=0,12$. Xavf bloki: $k(r_1)=0,30$; $k(r_2)=0,28$; $k(r_3)=0,22$; $k(r_4)=0,20$.

4. Integral indeks. Hududning integral jozibadorlik indeksi darajali funksiya shaklida hisoblandi:

$$I_{ij} = (X_{pot,i})^{k_{pot}} / (X_{risk,i})^{k_{risk}}, \quad k_{pot} + k_{risk} = 1. \quad (5)$$

Umumlashgan og'irlik koeffitsientlari korrelyatsiya zichligiga proporsional hisoblandi: $k_{pot} = |r_{pot}| / (|r_{pot}| + |r_{risk}|)$, $k_{risk} = 1 - k_{pot}$. Hisob natijasida $r_{pot}=+0,857$, $r_{risk}=-0,384$, bundan $k_{pot}=0,691$, $k_{risk}=0,309$. Investitsiya faolligi indeksi (A_i) jon boshiga investitsiyalarning respublika o'rtachasiga nisbati sifatida aniqlandi.

5. Salohiyatdan foydalanish samaradorligi. $E_i = A_i / I_{ij}$. (7) $E > 1$ — hudud obyektiv shart-sharoitlariga nisbatan ortiqcha investitsiya jalb etmoqda; $E < 1$ — salohiyat to'liq realizatsiya qilinmagan.

6. Diversifikatsiya koeffitsientlari. $Kd^+_i = N^+_i / N$, $Kd^-_i = N^-_i / N$ (8), bu yerda N^+ va N^- — respublika o'rtachasidan 20% dan ortiq yuqori/past bo'lgan pozitsiyalar soni, $N=9$.

7. Nomutanosiblik o'lchovlari. variatsiya koeffitsienti, max/min nisbati va aholi bilan vaznlangan Jini koeffitsienti.

8. Ma'lumotlar manbalari va davri. Empirik baza — O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining hududlar kesimidagi investitsiyalar [12], aholi soni [13] va YaHM [14] bo'yicha rasmiy ma'lumotlari, 2020–2025 yillar (2025-yil — yanvar–sentabr). 2020-yilgi bazaviy holat zanjirli real o'sish indeksleri bo'yicha retrospektiv

qayta hisoblash yo'li bilan taqqoslanadigan narxlarga keltirildi. Hisob-kitoblar Python 3.11 muhitida bajarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2025-yillarda O'zbekiston hududlarining asosiy investitsiya ko'rsatkichlari dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan. Tahlil davrida respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi taqqoslanadigan narxlarda 1,89 barobarga o'sdi; 2025-yil yanvar–sentabr oylarida o'zlashtirilgan hajm 443,6 trln so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida o'sish sur'atlari 124,0 foizdan (Qashqadaryo) 367,3 foizgacha (Namangan) o'zgardi.

1-jadval

O'zbekiston hududlarining asosiy investitsiya ko'rsatkichlari dinamikasi, 2020–2025-yillar

Hudud	Ulush 2020,%	Ulush 2025,%	Δ , p.p.	Jon boshiga inv., ming so'm	Respub- lika =100	Inv./ YaHM,%	2025/ 2020,%	Variatsiya koeff.,%
Toshkent shahri	12,5	16,2	+3,7	22 828	195,1	25,5	278,0	10,7
Toshkent viloyati	14,4	14,4	-0,1	20 293	173,5	43,4	213,5	15,6
Namangan	6,8	11,6	+4,8	16 274	139,1	74,6	367,3	49,4
Navoiy	8,6	7,4	-1,2	29 638	253,4	27,9	183,7	20,9
Buxoro	5,9	6,6	+0,7	13 927	119,1	40,7	238,4	24,2
Qashqadaryo	11,3	6,5	-4,8	7 867	67,2	35,8	124,0	30,6
Samarqand	7,8	6,4	-1,4	6 527	55,8	28,3	176,1	10,5
Andijon	5,5	6,0	+0,5	7 626	65,2	29,4	233,3	10,1
Farg'ona	5,3	5,8	+0,5	6 147	52,5	28,1	236,5	19,1
Jizzax	5,9	4,2	-1,7	12 051	103,0	43,4	153,0	24,8
Qoraqalpog'iston Resp.	3,4	4,0	+0,6	8 624	73,7	38,5	249,9	22,2
Xorazm	3,2	3,9	+0,7	8 408	71,9	33,6	261,6	17,1
Surxondaryo	5,3	3,9	-1,4	5 749	49,1	31,5	157,6	26,1
Sirdaryo	4,1	3,2	-0,9	15 131	129,3	50,7	169,3	24,2
Respublika bo'yicha	100,0	100,0	0,0	11 698	100,0	34,9	188,9	—

Jadval ma'lumotlari investitsiya makonining sezilarli qayta taqsimlanishini ko'rsatadi. Toshkent shahri ulushi 12,5 dan 16,2 foizga, Namangan ulushi 6,8 dan 11,6 foizga o'sdi, Qashqadaryo ulushi esa 11,3 dan 6,5 foizga (–4,8 p.p.) qisqardi. Jon boshiga investitsiyalar bo'yicha maksimal qiymat Navoiyda (253,4% respublika o'rtachasidan), minimal — Surxondaryoda (49,1%) qayd etildi; tafovut 5,16 barobarni tashkil etadi. Investitsiya oqimlarining barqarorligi bo'yicha ham tafovut sezilarli: variatsiya koeffitsienti Andijonda 10,1%, Namanganda esa 49,4% (bir nechta yirik loyihaning bir vaqtda ishga tushirilishi natijasi). Aholi ulushi va investitsiya ulushi o'rtasidagi nomuvofiqlik alohida e'tiborga loyiq: 2025-yilda ijobiy farq atigi yettita hududda (Toshkent shahri +7,9 p.p., Toshkent viloyati +6,1, Navoiy +4,5 va h.k.), eng

katta salbiy farq Farg'ona (-5,2), Samarqand (-5,1) va Surxondaryoda (-4,0) kuzatildi. Ushbu beshta hududda aholining 49,3 foizi istiqomat qilib, investitsiyalarning atigi 28,6 foizi o'zlashtirilgan.

Mualliflik metodikasi bo'yicha hisoblangan investitsion salohiyat, notijorat investitsiya xavfi va integral jozibadorlik indeksleri hamda hududlarning 2020 va 2025-yillardagi reytingi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O'zbekiston hududlarining investitsion salohiyati, notijorat investitsiya xavfi va integral investitsion jozibadorlik indeksleri hamda reyting dinamikasi

Hudud	X_pot (saloh.)	X_risk (xavf)	I_ij (2025)	Reyting 2025	I* (2020)	Reyting 2020	Δ
Navoiy	1,819	0,909	1,548	1	1,518	1	0
Toshkent shahri	1,424	0,627	1,467	2	1,459	2	0
Toshkent viloyati	1,224	0,797	1,226	3	1,157	3	0
Buxoro	1,126	0,978	1,087	4	1,071	4	0
Xorazm	1,039	1,054	1,004	5	0,885	8	+3
Andijon	0,854	0,860	0,934	6	1,017	5	-1
Samarqand	0,759	0,800	0,881	7	0,978	6	-1
Farg'ona	0,838	1,019	0,875	8	0,881	9	+1
Qashqadaryo	0,903	1,211	0,873	9	0,879	10	+1
Jizzax	0,811	0,981	0,865	10	0,925	7	-3
Sirdaryo	0,749	0,957	0,826	11	0,847	11	0
Surxondaryo	0,820	1,182	0,823	12	0,807	13	+1
Namangan	0,869	1,378	0,817	13	0,821	12	-1
Qoraqalpog'iston Resp.	0,764	1,248	0,771	14	0,754	14	0

Integral indeks bo'yicha hududlar 0,771 dan 1,548 gacha bo'lgan diapazonda joylashdi; tafovut 2,01 barobarni, variatsiya koeffitsienti 24,7 foizni tashkil etdi. Respublika o'rtacha darajasidan (1,00) yuqori ko'rsatkichga atigi beshta hudud — Navoiy (1,548), Toshkent shahri (1,467), Toshkent viloyati (1,226), Buxoro (1,087) va Xorazm (1,004) ega bo'ldi. Bloklar kesimida investitsion salohiyat bo'yicha tafovut 2,43 barobarni (Navoiy — 1,819; Sirdaryo — 0,749), notijorat xavf bo'yicha 2,20 barobarni (Qoraqalpog'iston — 1,248; Toshkent shahri — 0,627) tashkil etdi.

Model validligini tekshirish uchun integral indeks bilan investitsiya faolligi o'rtasidagi korrelyatsiya hisoblandi: $r = 0,839$, $R^2 = 0,704$ — model hududlararo tafovutning 70,4 foizini izohlaydi; jon boshiga YaHM bilan korrelyatsiya $r = 0,950$ ni tashkil etdi. Xususiy bloklar kesimida jon boshiga YaHM bo'yicha tafovut eng yuqori (5,79 barobar: Navoiy — 108 108,6 ming so'm; Surxondaryo — 18 670,0 ming so'm). Xavf bloklari kesimida institutsional-loyihaviy xavf (r_1) bo'yicha eng katta tafovut kuzatildi: Namanganda 2,26, Andijonda 0,46. Ijtimoiy keskinlik (r_2) va ekologik yuklama (r_3) bo'yicha eng yuqori qiymatlar Qoraqalpog'iston Respublikasida, logistik izolyatsiya (r_4) bo'yicha esa Qoraqalpog'iston va Xorazmda aniqlandi.

1-rasmda keltirilgan «investitsion salohiyat — investitsion xavf» matritsasi hududlarni respublika o'rtacha darajasi ($X_{pot}=1,00$; $X_{risk}=1,00$) bo'yicha to'rt kvadrantga ajratadi.

«Investitsion salohiyat — investitsion xavf» matritsasi bo'yicha O'zbekiston hududlarining tipologiyasi

	Past xavf ($X_{risk} < 1,00$)	Yuqori xavf ($X_{risk} \geq 1,00$)
Yuqori salohiyat ($X_{pot} \geq 1,00$)	I kvadrant — «LOKOMOTIVLAR» Toshkent shahri (1,424; 0,627) Navoiy (1,819; 0,909) Toshkent viloyati (1,224; 0,797) Buxoro (1,126; 0,978)	II kvadrant — «REALIZATSIYA QILINMAGAN SALOHİYAT» Xorazm (1,039; 1,054)
Past salohiyat ($X_{pot} < 1,00$)	III kvadrant — «BARQAROR O'RTA GURUH» Andijon (0,854; 0,860) Jizzax (0,811; 0,981) Samarqand (0,759; 0,800) Sirdaryo (0,749; 0,957)	IV kvadrant — «DEPRESSIV VA MUAMMOLI HUDUDLAR» Qashqadaryo (0,903; 1,211) Namangan (0,869; 1,378) Farg'ona (0,838; 1,019) Surxondaryo (0,820; 1,182) Qoraqalpog'iston Resp. (0,764; 1,248)

I kvadrant. «Lokomotivlar» (yuqori salohiyat / past xavf): Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent viloyati, Buxoro. Aholining 25,0 foizini qamrab olib, investitsiyalarning 44,5 foizini o'zlashtirmoqda. II kvadrant. «Realizatsiya qilinmagan salohiyat» (yuqori salohiyat / yuqori xavf): Xorazm viloyati. Yuqori moliyaviy salohiyatga ega bo'lsa-da, ekologik yuklama va logistik izolyatsiya realizatsiyani cheklamoqda. III kvadrant. «Barqaror o'rta guruh» (past salohiyat / past xavf): Andijon, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo. Xavf past, ammo asosiy cheklov — salohiyat bloklarining zaifligi. IV kvadrant. «Depressiv va muammoli hududlar» (past salohiyat / yuqori xavf): Qoraqalpog'iston Resp., Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona. Aholining 42,3 foizi shu guruhda to'plangan bo'lib, investitsiyalarning atigi 31,8 foizi shu hududlarga to'g'ri keladi.

Investitsion salohiyatdan foydalanish samaradorligi (E) koeffitsienti bo'yicha hududlarning tipologiyasi 3-jadvalda keltirilgan. Koeffitsient qiymatlari 0,597 dan 1,702 gacha o'zgardi (tafovut 2,85 barobar) — bu integral jozibadorlik bo'yicha tafovutdan (2,01 barobar) sezilarli yuqori, ya'ni hududiy boshqaruv sifati obyektiv salohiyatdan ko'ra ko'proq farqlanadi.

3-jadval

O'zbekiston hududlarining investitsion salohiyatdan foydalanish samaradorligi (E) koeffitsienti bo'yicha tipologiyasi

Hudud	I_{ij}	A_i (faollik)	E_i	Kd⁺	Kd⁻	Tipologik guruh
Namangan	0,817	1,391	1,702	0,11	0,33	I. Intensiv foydalanish
Navoiy	1,548	2,534	1,636	0,44	0,11	I. Intensiv foydalanish
Sirdaryo	0,826	1,293	1,566	0,00	0,22	I. Intensiv foydalanish
Toshkent viloyati	1,226	1,735	1,414	0,56	0,00	I. Intensiv foydalanish
Toshkent shahri	1,467	1,951	1,330	0,56	0,11	I. Intensiv foydalanish
Jizzax	0,865	1,030	1,190	0,11	0,00	II. Muvozanatli foydalanish
Buxoro	1,087	1,191	1,096	0,33	0,11	II. Muvozanatli foydalanish

Qoraqalpog'iston Resp.	0,771	0,737	0,956	0,00	0,67	III. Yetarli foydalanilmagan
Qashqadaryo	0,873	0,672	0,770	0,11	0,33	III. Yetarli foydalanilmagan
Xorazm	1,004	0,719	0,716	0,22	0,22	III. Yetarli foydalanilmagan
Andijon	0,934	0,652	0,698	0,33	0,22	IV. Realizatsiya qilinmagan
Samarqand	0,881	0,558	0,633	0,22	0,22	IV. Realizatsiya qilinmagan
Farg'ona	0,875	0,525	0,601	0,11	0,22	IV. Realizatsiya qilinmagan
Surxondaryo	0,823	0,491	0,597	0,00	0,22	IV. Realizatsiya qilinmagan

Nomutanosiblikni umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar ikki tomonlama jarayonni ochib berdi. Bir tomondan, jon boshiga investitsiyalar bo'yicha ekstremal tafovut 2020-yildagi 6,21 barobardan 2025-yilda 5,16 barobarga qisqardi. Boshqa tomondan, aholi bilan vaznlangan Jini koeffitsienti 0,272 dan 0,289 gacha o'sdi, uchta yetakchi hududning umumiy ulushi esa 38,2 dan 42,2 foizga ko'tarildi — bu investitsiya massasining ko'p sonli aholiga ega hududlardan kam sonli aholiga ega markazlarga siljiganidan dalolat beradi. Markaz (Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari) aholining 19,5 foizini qamrab olib, YaHMning 42,9 foizini va investitsiyalarning 38,0 foizini to'pladi. Periferiya (Qoraqalpog'iston, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo, Xorazm) aholining 25,2 foiziga ega bo'lib, YaHMning atigi 17,5 foizini o'zlashtirdi. Diversifikatsiya koeffitsientlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kuchli pozitsiyalarning maksimal diversifikatsiyasi Toshkent shahri va viloyatida ($Kd^+=0,56$), kuchsiz pozitsiyalarning eng yuqori diversifikatsiyasi esa Qoraqalpog'iston Respublikasida ($Kd^-=0,67$) qayd etildi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar tadqiqot gipotezasini to'liq tasdiqlaydi: hududlarning investitsion jozibadorligidagi tafovut tabiiy-resurs salohiyati farqiga qaytarilmaydi va sezilarli darajada notijorat xavf omillari ta'sirida shakllanadi. Buning eng yaqqol dalili — xomashyo salohiyati yuqori bo'lgan hududlarning integral reytingdagi pozitsiyasidir.

Qashqadaryo viloyati tabiiy-resurs salohiyati bo'yicha respublikada ikkinchi o'rinni egallaydi ($p_s=1,47$) — uning hududida tabiiy gazning asosiy qismi qazib olinadi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi faoliyat yuritadi. Shunga qaramay, integral jozibadorlik bo'yicha viloyat 14 tadan 9-o'rinda ($I=0,873$) turadi: jon boshiga YaHM respublika o'rtachasining atigi 66 foizini tashkil etadi, investitsiya oqimlarining variatsiya koeffitsienti 30,6 foizga yetadi. Bu J. Sachs va A. Warner asoslagan «resurs la'nati» mexanizmining klassik namoyon bo'lishidir [22]: renta oqimi markazlashtirilgan byudjet orqali hududdan tashqariga chiqadi, mahalliy iqtisodiyot esa anklav xususiyatini saqlaydi. Surxondaryo ham xuddi shunday holat: tabiiy-resurs salohiyati o'rtachadan yuqori bo'lsa-da, jon boshiga YaHM bo'yicha respublikada oxirgi o'rinni egallaydi, logistik izolyatsiya va ijtimoiy keskinlik ko'rsatkichlari eng yuqorilardan biri.

Aksincha, Navoiy viloyati xomashyo salohiyatini yuqori qo'shilgan qiymatga aylantirishning muvaffaqiyatli misolini ko'rsatadi: tabiiy-resurs bahosi maksimal ($p_s=1,55$) bo'lishi bilan birga, jon boshiga YaHM respublika o'rtachasidan 3,16 barobar

yuqori, buning institutsional sababi — Navoiy erkin iqtisodiy zonasi va kon-metallurgiya kombinati atrofida shakllangan qayta ishlash zanjiri hamda maxsus logistik infratuzilma. Bu qiyoslash muhim xulosaga olib keladi: resurs salohiyatining o‘zi investitsion jozibadorlikni kafolatlamaydi; hal qiluvchi omil — renta oqimini hudud ichida qayta ishlash zanjiriga ulash bo‘yicha institutsional mexanizmning mavjudligi.

Natijalar E. I. Bey Rossiya Federatsiyasi hududlari bo‘yicha o‘tkazgan tahlil bilan ham qiyoslanadi: u xomashyo ixtisoslashuviga ega subyektlarning yuqori pozitsiyani egallashi, biroq bu holat investitsiya faolligining hudud ichidagi diversifikatsiya darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatgan edi [2]. O‘zbekiston misolida ham xuddi shunday qonuniyat kuzatiladi, muhim farq bilan: bizning modelimizda xomashyo omili atigi 20 foiz og‘irlik bilan kirgani holda, YaHM va moliyaviy salohiyat bloklari jami 50 foiz og‘irlikka ega. Sharqiy Yevropa tajribasi [6] shuni ko‘rsatadiki, faqat kapital oqimini rag‘batlantirishga qaratilgan siyosat konvergensiyaning ta‘minlamaydi — bu O‘zbekistonda Jini koeffitsientining o‘shishida ham namoyon bo‘lmoqda.

Alohida e‘tiborga loyiq natija — investitsiya faolligi va integral jozibadorlik o‘rtasidagi tizimli nomuvofiqlik. Namangan viloyatida E koeffitsienti 1,702 ni tashkil etadi, biroq bu o‘shish bir nechta yirik loyihaning bir vaqtda ishga tushirilishi hisobiga yuzaga kelgan bo‘lib, strukturaviy salohiyat bilan mustahkamlanmagan — bu loyihalar yakunlangach keskin pasayish xavfini keltirib chiqaradi. Aksincha, Farg‘ona ($E=0,601$), Surxondaryo ($0,597$) va Samarqand ($0,633$) viloyatlarida mavjud jozibadorlik salohiyati sezilarli darajada realizatsiya qilinmagan.

Aniqlangan qonuniyatlar nomutanosiblikni qisqartirishning konseptual yo‘nalishlarini belgilaydi. Birinchidan, EIZ va KSZ tarmog‘ini hududlarning qiyosiy ustunliklariga moslashtirish zarur — «Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonun [18] yagona imtiyozlar rejimini belgilaydi, biroq xalqaro tadqiqotlar [4] shuni ko‘rsatadiki, zonalar dinamikasi soliq imtiyozidan ko‘ra bozorga yaqinlik va infratuzilmaga bog‘liq; shu sababli IV kvadrantdagi hududlarda universal imtiyozlar o‘rniga aniq ixtisoslashuv (Qashqadaryo va Surxondaryoda gaz-kimyoy, Qoraqalpog‘istonda suv tejovchi agrotexnologiyalar, Namangan va Farg‘onada yengil sanoat) zarur. Ikkinchidan, klaster siyosati M. Porter konsepsiyasiga muvofiq [19] hududning mavjud ishlab chiqarish bazasidan o‘shib chiqishi kerak, ma‘muriy tarzda joriy etilmasligi lozim. Uchinchidan, notijorat xavflarni kamaytirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar zarur: logistik izolyatsiya yuqori hududlar uchun transport-logistika koridorlari, ekologik yuklama yuqori hududlar (Orolbo‘yi) uchun reabilitatsiya dasturlari. To‘rtinchidan, «yagona oyna» tizimini kuchaytirish institutsional xavfni pasaytiradi [10; 24]. Beshinchidan, investitsiya dasturlarini shakllantirishda mezon sifatida mutlaq hajm emas, E koeffitsienti qo‘llanilishi maqsadga muvofiq: $E < 0,7$ bo‘lgan hududlarda muammo mablag‘ tanqisligida emas, balki loyihalarni tayyorlash salohiyatining zaifligidadir.

Tadqiqot cheklovlari: kuzatuv birliklari soni kam ($n=14$) bo‘lgani sababli korrelyatsion natijalar ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi kerak; to‘qqizta ko‘rsatkichdan uch tasi (p_5 , r_2 , r_3) ekspert bahosiga asoslangan; yanvar–sentabr

ma'lumotlari mavsumiy omilni to'liq istisno etmaydi; model fazoviy avtokorrelyatsiya effektlarini hisobga olmaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ilgari surilgan gipotezani tasdiqladi: O'zbekiston hududlarining investitsion jozibadorligidagi tafovutlar tabiiy-resurs salohiyati farqiga qaytarilmaydi va sezilarli darajada notijorat investitsiya xavflari — ijtimoiy keskinlik, ekologik yuklama, logistik izolyatsiya va investitsiya oqimlarining beqarorligi — ta'sirida shakllanadi.

Ishlab chiqilgan to'qqiz omilli integral baholash modeli investitsiya faolligi bilan kuchli korrelyatsiyani ($r=0,839$; $R^2=0,704$) namoyon etdi. Integral jozibadorlik bo'yicha respublika o'rtacha darajasidan yuqori ko'rsatkichga atigi beshta hudud ega; yetakchi Navoiy (1,548) va quyi pog'onadagi Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,771) o'rtasidagi tafovut 2,01 barobarni tashkil etadi. Hududlarning 35,7 foizi «past salohiyat / yuqori xavf» kvadrantida joylashgan bo'lib, ularda aholining 42,3 foizi istiqomat qiladi.

Nomutanosiblik dinamikasi ikki yo'nalishli ekanligi aniqlandi: ekstremal tafovut 6,21 dan 5,16 barobarga qisqargan bo'lsa-da, aholi bilan vaznlangan Jini koeffitsienti 0,272 dan 0,289 gacha o'sgan — bu divergensiya tendensiyasining saqlanib qolayotganini bildiradi. Salohiyatdan foydalanish samaradorligi bo'yicha tafovut (2,85 barobar) integral jozibadorlik bo'yicha tafovutdan (2,01 barobar) yuqori bo'lib, hududiy boshqaruv sifatining obyektiv shart-sharoitlardan kam bo'lmagan ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar: Iqtisodiyot va moliya vazirligiga — investitsiya dasturlarini shakllantirishda integral jozibadorlik indeksi va E koeffitsientini mezon sifatida joriy etish, $E<0,7$ bo'lgan hududlar uchun institutsional yordam mexanizmini yo'lga qo'yish; Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga — EIZ va KSZ tarmog'ini universal imtiyozlar modelidan hududiy ixtisoslashuv modeliga o'tkazish, IV kvadrantdagi hududlar uchun alohida investitsiya profillarini ishlab chiqish; hokimliklarga — «yagona oyna» tizimini raqamlashtirish orqali institutsional xavfni pasaytirish; Statistika agentligiga — hududiy monitoring uchun zarur ko'rsatkichlar bazasini shakllantirish.

Kelgusi tadqiqot yo'nalishlari: modelni tuman darajasiga tushirish, fazoviy ekonometrika usullari yordamida qo'shni hududlar ta'sirini baholash, ekspert bloklarini miqdoriy ko'rsatkichlar bilan almashtirish, panel ma'lumotlar asosida dinamik modellash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2024: Uzbekistan. — Manila: ADB, 2024.
2. Бей Э.И. Инвестиционная привлекательность регионов как фактор развития национальной экономики: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. — М.: Государственный университет управления, 2008. — 188 с.
3. Esanaliev O.Yu. Hududiy investitsion faoliyatni rivojlantirishda kichik sanoat

- zonalarining ahamiyati // *Innovations in Science and Technologies*. — 2025. — T. 2, № 10. — B. 88–95. — URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17672127>
4. Frick S.A., Rodríguez-Pose A., Wong M.D. Toward economically dynamic special economic zones in emerging countries // *Economic Geography*. — 2019. — Vol. 95, № 1. — P. 30–64.
5. Гришина И.В. Анализ и оценка инвестиционной привлекательности регионов России: методология и результаты // *Инвестиции в России*. — 2005. — № 4. — С. 3–15.
6. Iammarino S., Rodríguez-Pose A., Storper M. Regional inequality in Europe: evidence, theory and policy implications // *Journal of Economic Geography*. — 2019. — Vol. 19, № 2. — P. 273–298.
7. Krugman P. Increasing returns and economic geography // *Journal of Political Economy*. — 1991. — Vol. 99, № 3. — P. 483–499.
8. Markowitz H. Portfolio selection // *The Journal of Finance*. — 1952. — Vol. 7, № 1. — P. 77–91.
9. Mustafakulov Sh.I. O‘zbekiston–2030 strategiyasi: hududiy iqtisodiy rivojlanish doirasida viloyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalalari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2025. — T. 13, № 7.
10. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. — Paris: OECD Publishing, 2022.
11. Otajanov U.A. Comprehensive assessment of the regional investment potential of the Republic of Uzbekistan // *International Journal of Multidisciplinary Research and Analysis*. — 2021. — Vol. 4, № 11.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi. — Toshkent, 2025. — URL: <https://stat.uz>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Hududlar kesimida doimiy aholi soni (01.07.2025 holatiga). — Toshkent, 2025. — URL: <https://stat.uz>
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Yalpi hududiy mahsulot va aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot. — Toshkent, 2025. — URL: <https://stat.uz>
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston–2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. — URL: <https://lex.uz>
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi PQ-459-son «O‘zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. — URL: <https://lex.uz>
17. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-son «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz>
18. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi O‘RQ-604-son «Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz>
19. Porter M.E. Clusters and the new economics of competition // *Harvard Business Review*. — 1998. — Vol. 76, № 6. — P. 77–90.
20. Rodríguez-Pose A. The revenge of the places that don’t matter (and what to do

about it) // Cambridge Journal of Regions, Economy and Society. — 2018. — Vol. 11, № 1. — P. 189–209.

21. Ройзман И., Гришина И., Шахназаров А. Комплексная оценка инвестиционной привлекательности и инвестиционной активности российских регионов // Инвестиции в России. — 2001. — № 4. — С. 5–16.

22. Sachs J.D., Warner A.M. The curse of natural resources // European Economic Review. — 2001. — Vol. 45, № 4–6. — P. 827–838.

23. UNCTAD. World Investment Report 2025. — Geneva: United Nations, 2025.

24. World Bank. Uzbekistan Country Economic Update. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2023.

Yormonqulova N.I. Mintaqaviy tafovutlar va iqtisodiy rivojlanishda investitsiyalar oʻrni // Qoʻqon universiteti xabarnomasi. — 2025. — T. 15, № 16. — B. 62–65.